"DEVONI NIHONIY"DAGI HAMD VA NA'T G'AZALLAR TAHLILI

Arzikulova Sohiba Abdujabbor qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: mazkur maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Devoni Nihoniy" devoniga kiritilgan hamd va na't g'azallarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlilga tortilgan bo'lib, xususan, tahlil davomida shoir g'azallarida Allohga hamd va Muhammad (s.a.v.) ta'rifining badiiy talqini, mumtoz o'zbek g'azal poetikasi an'analari bilan aloqasi hamda tasvir vositalari orqali ifodalanish mexanizmi ilmiy asosda yoritildi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning hamd g'azali tahlil qilinar ekan shoirning dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda diniy bilimlardan ham yetarlicha xabardor ekanligi, Allohning sifatlari ma'nosini chuqur anglagan shaxs, na't g'azali tahlilida esa payg'ambarlar tarixidan xabardor, har bir fikri asosli shoir sifatida namoyon bo'lgani ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: g'azal poetikasi, hamd, na't, badiiy tasvir, jadid adabiyoti, devon, nafs, Allohning sifatlari, payg'ambarlar tarixi.

Аннотация: В данной статье анализируются идеологические и художественные особенности газелей «Хамд» и «Наът», включенных в сборник «Дивони Нихоний» Хамзы Хакимзоды Ниязи. В частности, в ходе анализа научно освещены художественная интерпретация восхваления Аллаха и описания Мухаммеда (мир ему) в газелях поэта, их связь с традициями классической узбекской газельной поэтики, а также механизм выражения посредством визуальных средств. При анализе газелей «Хамд» Хамзы Хакимзоды Ниязи подчеркивается, что поэт обладал достаточным знанием как религиозных, так и светских знаний, глубоко понимал смысл

атрибутов Аллаха, а в анализе газелей «Наът» он предстает как поэт, знакомый с историей пророков и имеющий обоснованное мнение.

Ключевые слова: поэтика газелей, хамд, наът, художественный образ, джадидская литература, диван, нафс, атрибуты Аллаха, история пророков.

Abstract: This article analyzes the ideological and artistic characteristics of Hamd and Na't ghazals included in the "Divoni Nihoniy" collection by Hamza Hakimzoda Niyazi. In particular, during the analysis, the artistic interpretation of praise to Allah and the description of Muhammad (pbuh) in the poet's ghazals, their connection with the traditions of classical Uzbek ghazal poetics, and the mechanism of expression through visual means were scientifically highlighted. While analyzing Hamd ghazals by Hamza Hakimzoda Niyazi, it was emphasized that the poet was sufficiently aware of religious knowledge along with secular knowledge, a person who deeply understood the meaning of the attributes of Allah, and in the analysis of Na't ghazals, he appeared as a poet who was aware of the history of the prophets and had a well-founded opinion.

Keywords: ghazal poetics, hamd, na't, artistic image, Jadid literature, diwan, nafs, attributes of Allah, history of prophets.

Sharq mumtoz adabiyotida hamd va na’t g‘azallar ko‘p yaratilgan, ular, odatda, doston muqaddimasining maxsus bobi bo‘lgan. Masalan, Alisher Navoiy, Mashrab, Munis, Ogahiy va boshqa shoirlar devonlari hamd va na’t g‘azallar bilan boshlangan. [7: 15] Bu an’anaga aylanib, hatto, XX asr she’riyatida ham saqlangan. Xususan, Hamza Hakimzoda Niyoziy ham “Devoni Nihoniy” devoniga an’anaviy tarzda hamd, undan so‘ng esa na’t g‘azal tarzida tartib bergan. Hamza ijodi bugunga qadar o‘rganilar ekan, adib ijodiga turli rakurslardan baho berildi. Hatto,

Hamzani "dinsiz" deguvchi taraf vakillari ham shakllandi. Biroq Hamza devoniga kiritilgan hamd va na't g'azallar shoirning diniy bilimlardan yetarlicha xabardor bo'lganini, islom dini ahkomlarini, Allohning sifatlari ma'nosini yaxshi anglaganini, payg'ambarlar tarixidan, odamning yaratilishi borasidagi qarashlarni tahlil qila olganini ko'rsatib bera oladi. Yuqorida keltirilgan fikrlarimizning isboti uchun devondagi hamd g'azal tahliliga o'tamiz:

"Yo iloho, sangadur hamd-u sano,
Qodiro, hayyu tavono zula'lo.
Ham qadimsan, ham azal loyazal,
Vorlig'ingga yo'q sani hech intiho". [5: 13]

Shoir hamdni nido san'ati bilan boshlaydi: *"yo iloho", "Qodiro"*. Dastlab barcha hamd-u sano yolg'iz Allohga ekanliginin ta'kidlagan shoir, endi uning "Al-qodir" sifatiga to'xtalib, "*hayyu tavono zula'lo"* deydi. "Hayyu tavono zulalo" birikmasi mumtoz she'riyatda uchraydigan fors-tojikcha va arabcha unsurlardan tashkil topgan sifatlashdir. Uni qismlarga ajratib tahlil qilamiz:

Hayyu (arabcha "ḥayy") – tirik, abadiy yashovchi.

Tavono (forscha) – qudratli, kuchli.

Zula'lo (forscha "zulāl") – tiniq, pokiza, musaffo suvdek sof.

Birgalikda ma'nosi "Abadiy tirik, qudratli va musaffo zot" yoki "Hayot baxsh etuvchi, qudratli va pokiza" degan ma'nolarni beradi. Hamza aynan "Al-qodir" sifatidan so'ng mazkur birikmani qo'llashi ham o'ziga xos ideallikni yuzaga chiqargan. *"Vorlig'ingga yo'q sani hech intiho"* misrasini o'qigan kishining xayoliga Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"ning uchinchi devoni "Badoye ul-vasat" tarkibiga kiritilgan quyidagi bayti keladi:

"Azal ham sen, abad ham sen, ne avval birla oxirkim,

Anga yo'q ibtido paydo, munga yo'q intiho paydo". [2: 4]

Ko'rish mumkinki, har ikki shoir ham Allohning azal va abad ekanligiga, shu bilan bir qatorda oxiri (intihosi) yo'qligiga ham urg'u bermoqda. Hamza bu sifatni keyingi baytlarda yana davom ettiradi:

"Vorlig'ingga kul shahodat verg'usi,
Oy ila xurshid-u arz-u samo.
Bir sifoting qulhu ollohu ahad,
Yo'q shariging, yakkasan, yo rabbano". [5: 13]

Keyingi misralarda esa bu dunyo Allohning qudrati bilan yaratilganini aytayotgan shoir dunyoning yaratilishi uchun Allohga bir so'zning o'zi yetarli bo'lganini eslashni ma'qul ko'radi:

"Kun degan amring bilan topdi qaror,
Yer-u ko'k, lavh-u qalam, arshul a'lo". [5: 13]

Olamning yaratilishi haqida mulohaza qilinganda, odamning yaratilishini chetda qoldirish mumkin emas, shuning uchun Hamza Alloh cheksiz qudrati bilan Odam atoni qora tuproqdan yaratganini, shuningdek, mo'min-u kofir, aziz-u avliyolarning barchasi ham uning naslidan ekanligini qalamga oladi. Islom dinidagi eng keng tarqalgan tushunchalar Jannat va Do'zax masalasini ham chetda qoldirmaydi:

"Xalq etib mushriklara yetti tomug',
Ahli imonlarga jannatul a'lo". [5: 14]

Shu kabi baytlarda Alloh qudrati va yakkaligini ta'kidlagan Hamza keyingi baytlarda go'yoki Allohga munojat qilib insoniyat uchun, xususan, musulmonlar uchun mag'firat so'rayotgandek bo'ladi. Mo'minlarning qilgan xatolari uchun kechirilishlari uchun esa Muhammad (s.a.v.) ruhi pokini esga oladi. Insonlar savol-

javob qilinib, jazolanadigan kunda Odam atoning nasliga shafqat qilishini so'raydi. Shundan so'ng esa shoir Allohdan har bandani toat yo'liga solishini, shaytonning turli aldovlaridan saqlashini, fisq-fasod ishlardan, yomon nafsga do'st bo'lishdan va bularning natijasida esa mahsharda yuzlarning qora bo'lishidan panoh so'rab, hamisha har bir banda Allohning rahmatidan umidvor ekanligi qalamga oladi. Keyingi baytda ham shoir tazod san'atidan o'rinli foydalanadi:

"Sen o'zingsan podhshohi bemalol,
Borgohinga kelibman bir gado". [5: 16]

Eng so'nggi baytda esa Nihoniy o'z muddaosini ochiqlaydi. Uning maqsadi Allohning zarra qadar bo'lsa-da rahmatiga muyassar bo'lmoq edi.

Hamza hamd davomida nido. tazod, tanosub, talmeh, epitet kabi bir qator badiiy san'atlardan o'rinli foydalangan holda uning poetik qimmatini oshirgan. Qolaversa, har bir badiiy san'at shoir ko'zlagan maqsadiga yetishi uchun xizmat qilgan.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning na't g'azali ancha ixcham holda berilgan bo'lib, na't yetti baytdan iborat. Matla'ga e'tibor qaratganimizda xuddi hamd kabi nido san'ati oraqli murojaat qilishdan boshlanganining guvohi bo'lamiz:

"Yo Muhammad, aylanay, nomingadur jonim fido,
Toji sar o'ldi "laamruk" podshohi du saro". [5: 17]

Shoir na'tni *"Yo Muhammad, aylanay, nomingadur jonim fido"* degan misra bilan boshlar ekan, Muhammad ismining ma'nosiga yuksak baho beradi. Shoir Muhammad (s.a.v.) ga shunday ummatki, hatto, ismining o'ziga jon fido qilishga tayyor. Matla'dagi so'zlarning lug'aviy ma'nosiga to'xtalsak:

– laamruk – Qur'ondagi arabcha ibora bo'lib, "Sening umring haqqi" degani; [7: 35]

– podshohi du saro – ikki olam podshohi;
– toji sar bo'ldi – eng oliy sharaf bo'ldi.

Mazkur so'zlarning ma'nosini bilish orqali bayt mazmunini yana-da oydinlashadi. Baytning asosiy g'oyasi – Payg'ambarga bo'lgan cheksiz muhabbat va ehtiromni ifodalashdir. Matla'da she'riy san'atlardan talmeh ("laamruk" so'zi orqali Qur'on oyatiga ishora qilingan), istiora ("toji sar" sharaf va saodat ma'nosida qo'llangan), nido ("Yo Muhammad" murojaati orqali yuzaga kelgan) dan foydalanganini ko'ramiz. Keyingi baytlarda esa shoir payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ni "anbiyolar sarvari" deydi va payg'ambar buyurgan yo'ldan yurmaganlar, oxir borib xor bo'lishlarini aytadi. Shoir xuddi hamd g'azalda ko'rganimiz Odam ato va Havvolarning ruhi poki haqida na'tda ham foydalanadi. Hamza Muhammad (s.a.v.0ga murojaat qilib, bu dunyoda qilgan xatolari uchun mahsharda Alloh huzurida uning gunohlarinikechirishiuchun vositachi bo'lishini so'raydi. Bunday mazmundagi baytlarni Hamza faqat o'zi uchun emas, butun musulmon ahli nomidan yozgan deb tahlil qilsak, to'g'ri bo'ladi. Zotan, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) so'nggi nafaslariga qadar "Ummati" deb yashaganlarini biz ko'p manbalar orqali o'qiganmiz. Ummatlarning qilgan gunohlariga avval payg'ambar shafoatchi bo'lsa, Alloh ham shu bandani do'zaxdan saqlab qolishidan umidvorlik ruhidagi baytlar na't tarkibida alohida o'rin egallagani quyidagi misralar orqali bilishimiz mumkin:

"*Tun saharlar ismi poking yod etar mahzun Nihon,*
Tut shafoat dastida, albatta, fi-yovmul-jazo". [5: 17]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Hamza o'z davrining haqgo'y insoni bo'lib, u dunyoviy bilimlar bilan cheklanmagan, aksicha, islom dini tarixi, payg'ambarlar shajarasi, fiqh ilmidan ham xabardor bo'lgan. Shuning uchun

Hamza zamonasining soxta mullo-yu eshonlarining turli xil badkirdorliklariga, oddiy aholidan aldov yo'li bilan pul undirishlariga jim qarab tura olmagan. Biz yuqorida shoirning devonidagi hamd va na't g'azalarinigina tahlilga tortdik, xolos. Hamzaning bir qator dramatik va publitsistik asarlari ham mavjudki, ular bizga Hamzaning diniy qarashlarini yana ham chuqur angab yetishimizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov Sh. Hamza lirikasining xususiyatlari (devon misolida). –T.: 1992. – 178 b.
2. Alisher Navoiy. Badoye ul-vasat. –T.: 2011. – 386 b.
3. Arzikulova S. Jadid she'riyatida ijtimoiy mavzular. T.: 2024. – 80 b.
4. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti.T Ma'naviyat , 2004. – 464 b.
5. Hamza.To'la asarlar to'plami. 1-tom. T.: Fan, 1988. – 546 b.
6. Hamza. Asarlar. 2 tomlik, 2-tom. (She'rlar). www.ziyo.uz
7. Iskandarov F. Alisher Navoiy dostonlaridagi na'tlar poetikasi. –T.: 2023. – 164 b.
8. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
9. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, *57*(1), 132–138.

10. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.
11. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.
12. Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). SAB'AI SAYYOR" DOSTONINING BOBLARI BO'YICHA TAVSIFI. *Shokh Articles Library*, *1*(2).
13. Dilshoda, A. (2025). MUHAMMAD YUSUF IJODINING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O 'RNI. Global Science Review, 1(1), 388-392.
14. .Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*. (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
15. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.